

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'rni va ahamiyati	6
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlar vertikal tabaqalanishini matematik modellashtirish.....	15
Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov Ekoturizm resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida)	22
T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, K.O.Daljanov Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	30
O.T.Mirzamahmudov Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari	36
O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri	41
G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev Xavfli meteorologik hodisalarning takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish	54
R.Y.Xoliqov Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'rtasidagi geokimyoviy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash	68
D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlarini.....	81
K.M.Xakimov Antroponimik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida	87
Y.B.Raxmatov Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari	93
R.T.Pirnazarov Shohimardonsoy havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari	96
P.R.Qurbonov Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlarini.....	103
H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi.....	113
Z.X.Madaminov Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish	118
E.G'.Mahkamov Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari	122
Z.A.Temirov Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
M.M.Avezov, A.M.Elmurotova Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiy tabiiy geografik tavsif	135
M.R.Usmanov O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

ANTROPONIMIK MODEL: MILLIY FAMILIYA VA UNING ZARURIYATI HAQIDA

АНТРОПОНИМИЧЕСКИЙ МОДЕЛ: О НЕОБХОДИМОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ФАМИЛИИ

ANTROPONIMIC MODEL: ABOUT NECESSARITY OF NATIONAL SURNAME

Xakimov Koshkar Makkamovich¹¹Jizzax davlat pedagogika universiteti, g.f.n.**Annotatsiya**

Maqolada milliy familiyalarimizning tarixi, evolyutsiyasi, paydo bo'lishiga asos bo'lgan motivlar, hududiy xususiyatlari va etimologiyasi kabi muammolar qisman tahlil qilingan. Milliy familiyalarimiz shakli va ularning zaruriyati haqida mutaxassislar fikr-mulohazalari o'rganildi va farazlar qilindi. Mutaxassislar tomonidan taklif qilingan tavsiya va bashoratlar asosida milliy familiyalarimizning xomaki shakllari taklif qilindi. Muhokama va tanlovlar yordamida familiyalarni takomillashtirib, uning barcha talablarga javob beradigan yagona milliy shaklini qabul qilish zaruriyati asoslandi. Bundan tashqari, tadqiqot ishida sohaga oid tarixiy manbalar, huquqiy-me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi va taniqli nomshunos olimlarning sohaga oid ilmiy ishlaridan imkoniyat darajasida foydalanildi.

Аннотация

В данной статье на конкретных примерах частично анализированы история, эволюция и основные мотивы появления, а также, этимология и территориальные различия национальных фамилий. На основе рекомендаций и прогнозов ученых-специалистов были предложены некоторые формы национальных фамилий, а также прогнозировано её будущее. Кроме того, были проанализированы исторические источники, нормативно-правовые документы, относящиеся к данной области, и по мере возможности были использованы научные труды известных ученых - антропонимистов.

Abstract

In this article were particularly analyzed some questions such as history, evolution, motives of formation, territorial features and etymology of our national surnames. Some presumption were given by author also specialist's ideas and considerations about these problems were studied. The proposed recommendations and predictions are sketchy forms of national surnames and may be subject to change and additions over time. Furthermore, in process of searching historical sources, legal and regulatory documents relating to sphere werestudied as well as well-known toponimists' scientific workswere used.

Kalit so'zlar: familiya, ism, taxallus, nisba, laqab, antroponim, etnonim, tabiiy geografik obyekt, oykonim, etnik birlik.

Ключевые слова: фамилия, имя, псевдоним, прозвище, антропоним, этноним, этническая группа, физико-географический объект, ойконим.

Key words: surname, name, pseudonym, ratio, nickname, ethnonym, physical geographic object, oykonimus, ethnic unity.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida xalqimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqib, asrlar davomida shakllangan azaliy qadriyatlarini asrab-avaylab, ularni rivojlantirish va keng ommaga targ'ib qilish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratish muhimdir. Chunki milliy qadriyatlarimiz dono xalqimizning aql-zakovati mahsuli, asrlar davomida yaratgan ma'naviy-ma'rifiy meros qilib qoldirgan qimmatli boylik hisoblanadi. Ana shunday milliy qadriyatlarimizning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri bu kishilarning ismlari va familiyalari hisoblanadi.

Har qanday antroponim nafaqat nom beruvchining nomlanayotgan shaxs haqidagi nuqtai nazarini ifodalaydi, balki o'zi ham nom yaratgan tilda so'zlashuvchilar tomonidan baholash obyekti (ijtimoiy-madaniy, etnik, konfessional, estetik va hokazo) hisoblanadi. Ilmiy toponimik adabiyotlarda kishilar ismi, familiyasi, taxallusi, nisbasi - antroponim va ularni o'rganuvchi soha - antroponimika deyiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Milliy familiyalarining paydo bo'lishi, nomlashga asos bo'lgan motivlar, substrat va adstrat antroponimlar, ularning hududiy tarqalishi qonuniyatlari va etimologiyasi kabi muammolar mutaxassislar tomonidan nisbatan kam o'rganilgan. Binobarin, tadqiqot ishida sohaga oid tarixiy manbalar, davriy matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda mavzuga oid chiqishlar hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi va nomshunos olimlarning ilmiy ishlaridan qisman foydalanildi. Ilmiy ishda qiyosiy-lingvistik va etimologik tahlil, tarixiy qiyoslash, geografik taqqoslash, tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Ishning maqsadi va vazifasi: Familiyalarning shakllanish tarixi, hozirgi holati, hududiy xususiyatlari, etimologiyasi hamda hozirgi milliy familiyalarning paydo bo'lishi haqidagi ma'lumotlarni tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar yordamida qiyosiy tahlil qilinadi. Shu bilan birga, familiyalarimizdagi ruscha qo'shimchalaridan voz kechish zaruriyati va milliy familiyalar turlari haqida turli farazlar tavsiya etiladi. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan: 1) familiyalarning paydo bo'lishi va ularni "nasliy meros" sifatida qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar o'rganiladi; 2) milliy familiyalar tarixi, evolyutsiyasi, paydo bo'lishiga asos bo'lgan motivlar tahlil qilinadi; 3) o'zbekona familiyalar yaratish bo'yicha turli farazlar tavsiya qilinadi; 4) hozirgi familiyalardagi ruscha qo'shimchalaridan voz kechish zaruriyati asoslanadi.

ASOSIY NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Hozirgi kunda mamlakatimizning barcha fuqarolari o'z ismi bilan birga familiyaga ham ega. O'rta Osiyo xalqlari jumladan, o'zbeklarda hozirgi shakldagi familiya so'nggi davrda paydo bo'lgan bo'lsa ham, bugun familiyasiz odamni tasavvur qilish qiyin. Familiya so'zi qaysi til mahsuli va qanday ma'noga ega ekanligini bilish manfaatdan xoli bo'lmaydi. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasida familiya (lotincha, familia- oila) so'ziga ikki xil ta'rif berilgan: a) qadimiy Rimda qon-qarindoshlar bilan birga qullarni ham o'z ichiga olgan oilaning xo'jalik huquqiy munosabatlarini o'zida mujassamlashtirgan nomi; b) bola tug'ilganda, farzandlikka olinganda, oldingi familiya o'zgartirilganda, nikohdan o'tganda qabul qilinadigan va nasldan naslga o'tadigan oilaviy nom.

Hozirgi ma'noda, familiya - bu qonuniy jihatdan rasmiylashtirilgan va otadan bolaga meros qoladigan shaxsiy nomdir. Mutaxassislarning yozishicha, ilk familiyalar shaxs tug'ilgan yoki uning «nasliy merosi» joylashgan joy nomiga nisbatan berish orqali yasalgan. Yevropada familiya qo'llash XV asrdan boshlab odat tusiga kirgan va asosan, yuqori tabaqalar orasida tarqalgan. Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, turkiy xalqlarda ham ismi va otasining nomini bildirish uchun qo'llaniladigan vositalar qadimdan mavjud bo'lgan. Masalan, VI-VII asrlarda ota ismidan keyin "o'g'li", "qizi" so'zlari qo'llanilgan.

O'rta Osiyo arablar tomonidan istilo qilingandan so'ng, arab tili hukmron tilga aylanishi munosabati bilan "ibn - o'g'li", "bint - qizi" kabi arabcha so'zlar yordamida nomlashlar paydo bo'lgan. Arab alifbosi ming yildan ortiq davr davomida amalda qo'llanilishi va arab tilini Qur'oni Karim tili sifatida mahalliy xalq orasida keng tarqalishi, arabcha nomlash usulini qo'llashga sabab bo'lgan. Masalan, at-Termiziy, al-Xorazmiy, ibn Sino kabi allomalarning nomlari arabcha ism qoidasi asosida yaratilgan. Xususan, o'z sulolasining shajarasini tuzmoqchi bo'lgan kishi "ibn" unsurini ishlatasa shajara juda ham ifodali va ixcham chiqadi. Aytish kerakki, ma'lum-mashhur kishilarning shajaralari ana shunday tuzilgan.

Ism va otasini nomini berish bilan aloqador qadimiy an'ana hamda e'tiqodlarning mohiyati va paydo bo'lish sabablari hammaga ham birdek tushunarli emas. Binobarin, ismi va otasini ismini bildiradigan vositalar bilan bog'liq bo'lgan sir-asrorlarni bilish ko'pchilikni qiziqtirishi aniq. Mutaxassislarning yozishicha, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbeklarda o'tmishda hozirgi ma'nodagi familiya bo'lgan emas, chunki ijtimoiy ehtiyoj ham bo'lmagan. Hozirgi shakldagi familiyalarning paydo bo'lishini zamonaviy antropomikani kashfiyoti deyish mumkin.

Chunki familiya zamon taqozosi bilan keyinchalik ijtimoiy ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan. Masalan, O'zbekistonda familiya hozirgi ko'rinishida sobiq sho'rolar davrida paydo bo'lgan. O'tgan asrning 30 -chi yillarida sho'rolar mahalliy xalqlar, jumladan o'zbeklarga nisbatan ruscha familiya va otchestva (ota ism) o'tkazish siyosatini yurgizishgan. Bu siyosat yigirmanchi asrning 40-chi yillarida rasmiy tus olgan bo'lsa, ikkinchi jahon urushidan keyin huquqiy maqomga ega bo'ldi va sohaga oid sho'rolar hukumatning bir qator qaror va yo'riqnomalari qabul qilindi.

O'sha davrda berilgan tug'ilganlik haqidagi guvohnoma, pasport va boshqa hujjatlarda erkaklar familiyasi va ota ismi (otchestva) uchun "-ov", "-ev", "-vich", ayollarga "-ova", "-eva", "-na" qo'shimchasi majburiy tarzda qo'shib yozilgan. Bu qo'shimchalar yordamida hosil qilingan familiyalar mahalliy xalq orasida muayyan tartibga aylanib, keyinroq qat'iy qoida qilib olindi. Bu qoidaga mustaqillik davrigacha fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish idoralari, pasport bo'limlarida qat'iy amal qilib kelindi. Dastlabki yillarda hujjat egasining ismi va familiyasini qayd qilish uchun bittagina joy (grafa) ajratilgan bo'lib, ism va familiyani milliy tilda takrorlashga joy qoldirilmagan. Mustaqillik davrigacha familiya yasashning shundan boshqa barcha milliy mahalliy shakllarini rasmiy ravishda yozish qat'iy man qilingan edi.

Ta'kidlash joizki, sho'rolar davrida ruscha shakl familiya va otchestvaning joriy qilinishiga qarshilik qilganlar, norozi bo'lganlar ta'qibga olingan. Yana bir e'tiborli tomoni shuki, o'sha vaqtda

fuqarolarning shaxsiy hujjatlarini yozib beruvchi davlat idoralarida, asosan, ruslar yoki rus tilida so'zlashuvchi millat vakillari ishlagan. Ular mahalliy xalq tilini bilmagan va qizil bayroqlilar zamonida davlat tili bo'lgan - rus tili qoidalariga va ruscha talaffuzga mos ravishda shaxsiy hujjatlarni rasmiylashtirib berishgan.

Soha bilimdoni, professor E.Begmatovning yozishicha, "shurolar davrida o'zbek tili antroponimlariga, umuman atoqli otlar tizimiga munosabatning ko'pgina salbiy tomonlari mavjud edi: - ittifoqda bir qator millat va xalqlar kabi o'zbeklar ham ruscha familiya, ota ismga zo'rlab o'tkazilgan va ular uch shaklli sistema asosida nomlanar edi: Tursunova Gulchehra Berdievna, Sharifov Tursun To'xtabaevich kabi; - shaxsning shaxsiy hujjatlarida o'zbekcha yozuv uchun maxsus joy ajratilmagan edi. Shaxs nomi mavjud hujjatlarda faqat rus tilida yozilardi; - qayd qilingan xatolar o'zbek fuqarolari ism-shariflarini faqat ruscha imlodida yozish holatini tug'dirdi va o'zbekcha ismlarning milliy talaffuz shaklini buzib aytish va yozishga zamin hozirladi". Afsuski, sobiq ittifoq davrida mahalliy aholiga nisbatan o'tkazilgan bunday antroponimik zug'um va zo'rvonlik siyosatining qoldiqlari qisman bo'lsa ham hozirgacha saqlanib qolgan.

XX asrning o'ttizinchi yillarigacha o'zbeklarning ismi va familiyalari, asosan, Mo'min Sobir o'g'li, Nazira Karim qizi tarzida yuritilgan. O'sha davrda ziyolilar orasida qisman «zoda» (Hamza Hakimzoda, Maqsud Shayxzoda), «iy», «viy», «iya», «viya» (Muxtor Ashrafiy, Mirzakalon Ismoiliiy, Muzayyana Alaviya) qo'shimchalari orqali ism va familiya, taxalluslar yasash ham odat bo'lgan. Shu bilan birga, o'zbek ziyolilari orasida ba'zida qo'shimchalarsiz ham quyidagi shaklda ism va familiyalar bo'lgan va muhimi hozirgacha saqlanib qolgan: Abdulla Qahhor, Izzat Sulton, Mirzakarim Osim va hokazo. E'tiborli tomoni shuki, oxirgi vaqtlarda qo'shimchasiz ism va familiyalar nafaqat ziyoli, ijodkorlar (Iqbol Mirzo, Akmal Nur, Sherzod Quدراتxo'ja) balki, oddiy fuqarolar orasida ham ko'paymoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin fuqarolar familiya va ota ismini, ularning shaklini erkin tanlash huquqiga ega bo'ldilar. Amaldagi qonunlariga ko'ra, har bir fuqaro muayyan bir ism va familiyaga ega bo'lishi belgilab qo'yilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 69-moddasiga muvofiq, bola ism, ota ism va familiya olish huquqiga ega. Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi va uni yagona to'g'ri shakli rasmiy hujjatlarda qayd etiladi. Familiya avloddan avlodga o'tadi, bir necha avlod-ajdod uchun an'anaviy nom sifatida xizmat qiladi. Familiyani belgilash va o'zgartirish tartibi ham amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarda aniq ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktyabrdagi 550-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari" da familiyaga «-ev», «-ov», «-eva», «-ova» kabi hamda ota ismiga «-evich», «-ovich», «-evna», «-ovna», «qizi», «o'g'li», «-iy», «-xon», «-xo'ja», «-hoji», «-bek», «-zoda», «mir-», «abdu-» kabi qo'shimchalarini kiritish yoki shu kabi qo'shimchalarni familiya va ota ismidan olib tashlash orqali tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvi qayd etilishi mumkin, deyilgan.

Bundan tashqari, mazkur hujjatda fuqarolarning ismi, ota ismi va familiyasini yozishda o'zbek tilining ifoda va talaffuz qonuniyatlariga to'la rioya etilishi belgilab qo'yilgan. Bunday zaruriyat fuqaroni jamiyatning boshqa a'zolaridan ajratib turishda, unga tegishli huquq va majburiyatlarni belgilashda hamda, uni huquq subyekti sifatida tan olishda muhim ahamiyatga ega. Familiya har bir fuqaroning shaxsiy nomulkiy huquqi bo'lib, oila va fuqarolik qonunchiligi tomonidan muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasida, "O'zbekistonda yashovchi har qanday shaxs o'zining ismini, familiyasini o'zining an'anasiga mos ravishda qo'yishi mumkin"ligi qayd qilingan. Demak, o'zbek tili qoidalari va milliy an'anasimizga mos bo'lgan, antroponimik modelini yaratishga huquqiy asos mavjud. Garchi, familiyalarni milliy shaklda yozdirishga qonuniy asos yaratilgan bo'lsa ham, ammo, hozirgacha soha mutaxassislari o'zligimizni anglatadigan o'zbekona familiya shakllarini taklif qilishmagan va muammo o'z yechimini kutmoqda.

Bunday holatning o'ziga xos sabablari ham bor, birinchidan, respublika hududida rus tili haligacha keng tarqalgan va ta'siri kuchli; ikkinchidan, shaxsiy hujjatlarni almashtirish jarayoni ko'p vaqt va qog'ozbozlikni talab qiladi; uchinchidan, kishilarda vaqt hamda xohish yetishmaydi va ular avvalgi familiyalarida qolishni ma'qul ko'rishadi, to'rtinchidan, shu vaqtgacha taklif qilinayotgan familiyalarning milliy shakllari uncha ishonchli emas.

O'zbekistonning dunyo siyosiy xaritasida mustaqil davlat sifatida paydo bo'lganligiga o'ttiz yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa ham, hozirgi kunga qadar familiyalarimiz ruslarning «-ev», «-ov»,

«-eva», «-ova» hamda, ota ismiga «-evich», «-ovich», «-evna», «-ovna» kabi qo'shimchalar bilan yozilmoqda va ular mutloq ko'pchilikni tashkil qiladi.

Ta'kidlash joizki Sobiq Ittifoq davrida familiyalarni ruschalashtirish siyosati barcha ittifoqdosh respublikalarda bir xil kechmagan. Ayrim xalqlar jumladan, ukrainlar, armanlar, gruzinlar, latishlar, estonlar va boshqalar, ism-sharifini aslicha saqlab qolishgan. Ammo, O'rta Osiyoda yashaydigan xalqlar, jumladan, o'zbeklar familiyalari yoppasiga «-ov, -ev» lashgan. Shu arzimagan qo'shimchalar tufayli ma'lum ma'noda milliy qadriyatlar va tarixiy ildizlarimizdan biroz uzoqlashdik.

Xo'sh, aslida familiya kerakmi, degan savol tug'iladi. Taniqli nomshunos olim Suyun Qoraevning yozishicha, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida har bir fuqaro o'z familiyasiga ega bo'lishi shart. Chunki familiya birinchidan, sulola ko'rsatkichi hisoblanadi, kishilarning qon-qardoshligini isbotlaydi, ikkinchidan har xil merosiy mulklarni rasmiylashtirishni osonlashtiradi, uchinchidan, turli rasmiy hujjatlarni to'lg'azish, aholi ro'yxati kabi tadbirlar faqat kishilar nomlariga qarab olib borilsa, ish ancha murakkablashadi.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida familiyalar ijtimoiy ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan va davr-zamonda muayyan o'zgarishlarga duchor bo'lishi mumkin. Bu albatta hukmron til, mafkura, milliy mentalitet va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Taraqqiy etgan mamlakatlarda bo'lgani kabi bizda ham familiya bo'lishi kerak. Hozirda familiya - bu oilaning merosiy nomi bo'lib, kamida uch avlodgacha o'zgarmaydi. Binobarin, har bir fuqaroga familiya kerak va soha mutaxassislari uning milliy shaklini taklif qilsalar yaxshi bo'lar edi. Bundan tashqari, respublikamiz hududida yashovchi fuqarolar millatidan qat'iy nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini tarixiy-milliy an'analariga muvofiq shaklda yozdirish huquqiga ega, ekanligi belgilab qo'yilgan.

Fuqarolarda familiyaning bo'lishi yana shuning uchun ham zarurki, kishi haqida qisqacha ma'lumot olishga mo'ljallangan barcha rasmiy hujjatlarda kishining ismi va familiyasi haqidagi ma'lumotlar kiritiladi. Qolaversa, hozirgi xususiy mulkka asoslangan bozor iqtisodiyotida har bir tadbirkor yoki ishbilarmon, uni dunyoga tanitadigan va brendga aylangan familiyasi bo'lishini xohlaydi. Shunday ekan, kelajakni o'ylagan odam familiyani e'tirof etadi. Nomshunos olimlarning fikriga ko'ra, yaqin kelajakda dunyodagi barcha xalqlar familiyani qabul qilishi tabiiydir.

Aholi soni tez ko'payotgan mamlakatimizda ham yangi familiyalarga ehtiyoj ko'payishi aniq. Ana shu ehtiyojni qondirish maqsadida, qandaydir yangi shakl, yangi nom kashf etish shart emas, aksincha, o'sha sulola vakillaridan birontasining taxallusi, nisbasi, laqabi (tug'ilgan yoki yashagan joyi, kasbi-kori va hokazo), urug'-qabilasining nomi, ota-bobo ismini familiya qilib olsa bo'ladi. Bir xil familiyalarni ko'payishi va qayta-qayta takrorlanishi davlat miqyosida muayyan chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Demak, milliy an'analarimizga mos keladigan familiyalarga talab oshadi.

Xo'sh, o'zbekona familiyalarning shakli qanday bo'lishi kerak? E'tibor berilsa, deyarli barcha xalqlarda familiyalarning etimologiyasi (ma'nosi) «o'g'li», «bolasi», «farzandi» degan ma'noni bildiradi. Masalan, Shimoliy Yevropa tillarida "-son", "-sen", "-zon" qo'shimchalari «o'g'li», fors-tojik tillarida zoda - "tug'ilgan", iy - "farzandi", pur - "o'g'li", duxt- "qizi", gruzin tilida shvili - "tug'ilgan", dze - "o'g'li" demakdir. Shularga asoslanib, o'g'li yoki qizi so'zini qo'shib familiya yasash mumkin. Masalan, Turkiyada, Demiro'g'li, Jafero'g'li, Sulaymono'g'li degan familiyalar ko'plab topiladi.

Yaqinda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan jadidlarga bag'ishlangan xalqaro anjumanga Buxoroning so'nggi amiri - mang'it o'zbeklari sulolasidan bo'lmish Amir Olimxonning hozirda Turkiyada yashovchi nabirasi Binafsha Hatuno'g'li va uning turmush o'rtog'i Nurettin Hatuno'g'li tadbirga mehmon sifatida taklif etilgan edi. Bu turdagi familiyalarda kishining o'z otasigina emas, balki ajdodlari ham nazarda tutiladi. Binobarin, kelajak avlodlar ham shu familiyani qabul qilsa bo'ladi. Shunga o'xshash o'zbekona familiyalar paydo bo'lsa nimasi yomon.

Shuningdek, "-iy" va "-zoda" qo'shimchalarini ham qo'shib o'zbekona familiya yasash xato bo'lmasa kerak. Masalan, Hasan Rajabiy, Dilorom Salohiy, Abdusamad Polvonzoda kabilar esa tayyor familiyalardir. Tarixiy va adabiy manbalardan ma'lumki, o'rta asrlarda bunday familiyalar turkiy xalqlarda, jumladan, o'zbeklarda (Koshg'ariy, Lutfiy, Navoi) bo'lgan va hozir ham bor. Bugungi kunda Ozarboyjon, Eron va Tojikistonda bunday familiyalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Hattoki, ayollar ham shu shakldagi familiyalarni qabul qilishgan.

Ma'lumki, tug'ilib o'sgan joyining nomidan nisba (nisbiy ot) yasash Movarounnahrda qadimdan an'ana bo'lgan. Masalan, Buxoro shahrida tug'ilgan Imom Buxoriy nisbasi mana o'n asrdirki, familiya sifatida avlodlari nomida saqlanib kelmoqda. Kishi ismlariga tug'ilgan, yashagan, mansub bo'lgan joy nomlaridan tashqari, kasb-korini bildiruvchi so'zlar, laqab va unvonlar ham

nisba sifatida qo'yilgan. Shunga asosan, kishilar o'z shahar-qishloqlari nomlari, tevarakatlaridagi tabiiy-geografik obyektlarning nomlaridan familiya yasashlari mumkin. Buning uchun ma'lum va mashhur tarixiy joy nomlari bo'lishi shart emas. O'zbekistonda yigirma besh mingdan ko'proq shahar va qishloqlar, bir necha ming daryo, soylar va ko'plab oronimik obyektlarning nomlari bor. Bu kabi nomlarning hammasidan familiya yasab bo'lmasa ham, ammo shaklan chiroyli, ma'nodor, tushunarli va tarixiy jihatdan ahamiyatlarini familiya uchun tanlab olsa bo'ladi.

Butun umrini antroponimlarni o'rganishga bag'ishlagan olim, professor E.Begmatovning yozishicha, geografik nomlardan ikki usul bilan familiya yasash mumkin. Birinchisi, azaldan amal qilib kelingan nisba (nisbiy nom), taxallus yordamida familiya yasash usuli: Nasafiy, Termiziy, Samarqandiy, Xorazmiy va boshqalar. Ikkinchisi, yangicha usulda joy nomiga "-lik" qo'shimchasini qo'shib sof o'zbekona familiya yasash: Parkentlik, Jizzaxlik, Urgutlik, Forishlik va hokazo. Xuddi shunday, qishloqlar, daryolar, soylar, kichikroq tog'larning nomlari ham familiya yasashda qo'l keladi: Qo'ytoshlik, Kultepalik, Oyqorlik, Sangzorlik va boshqalar. Keltirilgan misollar faqat tavsiya bo'lib, undan shu qishloqda yashaydigan barcha kishilar bir familiyada bo'lishi shart ekan, degan ma'no chiqmasligi kerak.

Ma'lumki xalqimiz urfiyatida har bir kishi yetti otasini bilishi kerak degan naql bor. Agar biz ajdodlarimizning nafaqat ismlari, balki ularning kasb-hunarleri va boshqa fazilatlarini yaxshi bilganimizda familiya «yasash» ancha oson ko'chgan bo'lar edi. Masalan, Naqshband, Gulxaniy, Sakkokiy kabi taxalluslar aslida hunar-kasb nomlaridir. Shunday ekan, ota-bobolarning kasb-hunarleri nomidan ham familiya yasash mumkindir.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, o'tmishda kishilar ismiga urug' - qabila nomlari qo'shib talaffuz qilingan. Bu o'sha odamni qaysi urug' yoki qabila vakili ekanligini bildirgan. Masalan, Jaloyir, Nayman, Barlos, Bahrin, Arg'un kabi familiyalar bo'lsa nimasi yomon. Xususan, "Boburnoma" da kishilar ismiga urug'-qabila nomlarini qo'shib tilga olganlar ko'p uchraydi: Ahmadali Arg'un, Islom Barlos, Hasanali Jaloyir va boshqalar.

Bundan tashqari, har bir qabila, katta urug' yana qancha shox, to'plarga bo'linadi. Ular ham kishilarga familiya tanlashda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunonchi, G'oyibnazar O'roqli, Mirkomil So'loqli, Ozoda Eshmontop, Sevara Puchuqoy va hokazo. Ayrim turkiy xalqlarda jumladan, turklar, ozarbayjonlar, qirim tatarlarda "-li" qo'shimchali familiyalar hozir ham uchraydi: Ibraimli, Mehmedli, Ahmedli va boshqalar. Shu shakldagi familiyalar haqida ham o'ylab ko'rsak xato bo'lmaydi.

Albatta, yuqoridagi taklif va mulohazalar dastlabki tasavvurlar hosil bo'lishi uchun shunchaki bir xomaki misollar edi. Bu o'ta mas'uliyatli ishga sohaning etuk mutaxassislari jalb qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Eng muhimi, familiya ham kishilarni ismi kabi beshikdan to qabrgacha egasiga xizmat qilishini inobatga oladigan bo'lsak, bu vazifa qanchalik muhim va mas'uliyatli ekanligini tushinish qiyin emas.

Tahlillardan ko'rinadiki, hozirgi o'zbekona familiya va ota ismlarida xilma-xillik va chalkashliklar uchraydi, ularni bartaraf qilish vaqti keldi. Bundan keyin, familiyalarimizni o'qib, millatimizni va mustaqil O'zbekiston fuqarosi ekanligimizni bilib olishlari kerak bo'ladi. To'g'ri, ushbu jarayon unchalik oson kechmaydi, ammo nasl-nasabimiz va sulolamiz nomlari ham, milliy qadriyatlarimizning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini unitmasligimiz lozim.

XULOSA

Milliy familiyalar shakllari va ularning zaruriyati mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlar, nomshunos olimlarning asarlari hamda ayrim ilmiy manbalar yordamida tahlil qilindi va quyidagi xulosalarni bayon qilishga asos bo'ldi:

- yuqorida bayon qilingan mulohaza va xulosalar har qancha asosli bo'lmasin, shunchaki bir tavsiya, o'zbekona familiyalarni xomaki shakllaridir;
- tadqiqot ishining mazmun-mohiyati va bayon qilingan tavsiyalarning asosiy maqsadi soha mutaxassislari qiziqtirib, chinakam milliy familiyalar yaratishdan iborat;
- mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng familiya yozish tartibi ham isloh qilinishini ko'pchilik kutgan edi. Biroq ota ismiga qo'shiladigan ruscha "-vich", "-ovna", "-evna" qo'shimchalari o'rniga o'zbekcha "o'g'li", "qizi", deb yozdirishga huquq berilganini aytmasa, bu sohada boshqa o'zgarish bo'lmadi;
- bizningcha, faqat o'zimizga xos bo'lgan familiyalar shaklini tanlovlar, muhokamalar yo'li bilan aniqlab olsa bo'ladi. Ana shunda, sho'rolar davrida markazdan buyruq yo'li bilan qabul qilingan ruscha familiyalar o'rniga milliy, o'zbekona familiyalar paydo bo'ladi;

- agar tilimizga mos, chinakam milliy antroponimik model yaratilsa, qaysi xalqqa, millatga mansubligimizni familiyalarimizdan bilib olish mumkin bo'ladi;
- o'zbeklarga xos, asl milliy familiyalar paydo bo'lsa kishilarda faxr va g'urur tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi;
- haqiqiy o'zbekona familiyalar milliy o'zligimizni anglashda, jahon hamjamiyatida yana ham kengroq tanilishimizga xizmat qiladi;
- milliy familiyani yaratish va ruscha qo'shimchalardan voz kechish, chetdan turib xalqimiz tarixiga "tosh otayotganlarga" munosib javob bo'ladi.
- davlat tili qonuni talablarini soha amaliyotiga to'laqonli joriy qilish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бегматов Э. А. Ўзбек исмлари изоҳи. -Т., "O'zbekiston". 2016. 608 -бет.
2. Бегматов Э. А. Ўзбек тили антропонимикаси. -Т., "O'zbekiston". 2013. 264 -бет.
3. Бегматов Э. А. Исмларнинг сирли олами. -Т., "O'zbekiston". 2014. 175 -бет.
4. Бегматов Э.А. Қораев С. Бизга фамилия керакми? "Фан ва турмуш" журнали, 1991 йил, 4-сон
5. Бекмуродов Н. Чиройли исмлар туплами. -Т.; "Янги аср авлоди". 2015. 520 -бет.
6. Бобур энциклопедияси. -Т.; "Шарқ", 2014. 744 -бет.
7. Гафуров А. Имя и история. -М.: "Наука".1987. 222 -стр.
8. Караев С. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарем. -Т.; "То'ron zamin ziyo". 2015. 500 -стр
9. Кенжаева С.Э. Ўзбек антропонимларининг семантик ва социолингвистик тадқиқи. Автореф. филол. фанлари номзоди. -Т.; 2005. 26 -бет.
10. Муталов А. "Ўзбекистон овози" газетаси. -Т.;1997 й. 21.06. 2-бет.
11. Никонов, В. А. Имя и общество. -М.: Наука. 1974. -278 -стр.
12. Никонов, В. А. Узбеки. Системы личных имен у народов мира. -М.: Наука, 1989. 312 -стр.
13. Охунов Н. Антропонимика нима? -Т.; "Фан".1984. 16 бет.
14. Рахимов, С.М. Хоразм минтақавий антропонимияси: Автореф. филол. фанлари номзоди. -Т.; 2005. 25 бет.
15. Система личных имен у народов мира. -М.; "Наука", 1986. -570 стр.
16. Хакимов К.М. Географик номларнинг шаклланиш қонуниятлари ва этимологияси ҳақида. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. -Т.: 2020. 58 жилд. -б.- 171-179.
17. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. -Т.: "O'zbekiston faylasuflar jamiyati" nashriyoti. 2005. -238 б.
18. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти". 2005. 9 жилд. 181 -бет
19. Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. -Т.: "Фан" -1985.
20. Hakimov Q.M., Mirakmalov M.T. Toponimika. Darslik. -Т.: "Tafakkur avlodi". 2020. -355 -бет.